

**Iste’mol krediti berish to‘g‘risidagi
—-sonli KREDIT ShARTNOMA
(namunaviy shakl)
(mazkur Qoidaning 24-bandi bo‘yicha)**

_____ shahri 20 ____ yil «____» _____

«Trastbank» xususiy aksiyadorlik bankingin _____ filiali/Amaliyot boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi (boshlig‘i) _____ Nizom va 20 ____ yil «____» _____ da berilgan ____-sonli Ishonchnoma asosida harakat qiluvchi, bir tomondan va _____ keyingi urinlarda «Qarzdor/mijoz» («____» yil _____ da berilgan pasporti seriyasi _____, N _____), deb ataladigan O‘zbekiston Respublikasi rezidenti ikkinchi tomondan ushbu shartnomani (kelgusida shartnomma deb ataladi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar.

1-§. Shartnoma predmeti

1. Bank, mavjud kredit resurslari doirasida va Kredit komissiyasining 20__ yil «____» _____ dagi ____-sonli bayonnomasi asosida _____(tovar, xizmatlar nomi)_____ sotib olish uchun ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida _____ (_____) so‘m miqdorida kredit mablag‘larini beradi.
2. Ushbu shartnomaning 1-bandida ko‘rsatilgan kredit summasi Qarzdorning/mijozning yozma topshirinomasi (arizasi) asosida tovarlar sotuvchisi(xizmatlar ko‘rsatuvchi) hisob raqamiga kreditlash ob’ektini _____.20__ yildagi ____-sonli oldi-sotdi shartnomasi (kontrakt, bitim) ga asosan to‘lovlarni naqdsiz shaklda o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.
3. Qarzdor/mijoz tomonidan olingan kredit hisobini yuritish uchun Bank unga tegishli ssuda hisob raqamini ochadi.

2-§. Shartnoma qiymati

4. Kreditning foiz stavkasi yillik hisob asosida ____% miqdorida belgilandi. Kredit mablag‘i ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq o‘z vaqtida qaytarilmagan takdirda, muddati o‘tkazilgan qarzdorlik uchun kreditning foiz stavkasi yillik hisob asosida ____% miqdorida o‘rnataladi. (*Bank kengashining 2020 yil 22 oktyabrdagi 116-qarori bilan tasdiqlangan va 574-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

4-1. Kredit bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni to‘lash tomonlarning o‘zaro kelishuviga muvofiq _____ usulida amalga oshiriladi.

(*differensial yoki annuitet*) (*Bank kengashining 2021 yil 11 iyundagi 76-son qarori bilan tasdiqlangan va 587-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

5. Bank kreditdan foydalanganlik uchun foizni Qarzdorga/mijozga hakiqatda berilgan kredit bo‘yicha asosiy qarzning qoldig‘iga nisbatan ushbu Shartnomada belgilangan nominal stavka bo‘yicha hisoblaydi. Bunda, kreditdan foydalanganlik uchun foiz kredit mablag‘i Qarzdor/mijoz tomonidan ko‘rsatilgan hisobvaraqla o‘tkazilgan sanadan boshlab hisoblanadi.

Kredit bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni to‘lash ushbu Shartnomaga ilova qilingan kreditni qaytarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

Bank kredit to‘lovini har oyning 11-sanasida undiradi. Kredit to‘lovi dam olish kuniga to‘g‘ri kelsa, hisoblangan foizni to‘lash dam olish kunidan keyingi birinchi ish kunida dam olish kunida hisoblangan foizni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Kreditni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so‘ng kredit bo‘yicha moliyalashtirishni boshlash muddati o‘zgarganda, shuningdek Qarzdor/mijoz tomonidan kredit qisman muddatidan oldin so‘ndirilishi munosabati bilan kredit bo‘yicha to‘lovni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq kredit to‘lovlarining miqdori o‘zgarganda Bank kreditni qaytarish jadvalini, qo‘srimcha kelishuvga asosan, yangidan rasmiylashtiradi. Bunda, kreditni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo‘lgan kreditni qaytarish jadvali o‘z kuchini yo‘qotadi. (*Bank kengashining 2020 yil 22 oktyabrdagi 116-qarori bilan tasdiqlangan va 574-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

6. Kredit bo‘yicha to‘lov muddati o‘tgan foiz yuzaga kelgan taqdirda Qarzdor/mijoz har bir muddati o‘tgan kun uchun to‘lov muddati o‘tgan foiz qiymatidan ____%, lekin muddatida to‘lanmagan foiz qarzdorligining 50 foizidan oshmagan miqdorda Bankka penya to‘laydi (agar tegishli kredit komissiyasi qarorida muddati o‘tgan foiz qarzdorligiga penya o‘rnatalgan bo‘lsa). Penya to‘lanishi Qarzdorni/mijozni muddati o‘tgan foiz qarzdorligini to‘lashdan ozod qilmaydi. (*Bank kengashining 2022 yil 25 martdagi 35-qarori bilan tasdiqlangan va 2022 yil 31 martda 602-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

6-1. Agar amalgा oshirilgan to‘lov qiymati Qarzdorga/mijozga ajratilgan iste’mol krediti bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 248-moddasiga muvofiq, ushbu Shartnoma bo‘yicha Qarzdorning/mijozning qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

- a) asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik va muddati o‘tgan foiz to‘lovlarini mutanosib ravishda;
- b) joriy davr uchun hisoblangan foiz va joriy davr uchun asosiy qarz bo‘yicha qarzdorlik;
- v) jarima va penya;
- g) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlari.

(*Bank kengashining 2025 yil 3 martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 4 martda 694-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

7 va 8-bandlar Bank kengashining 2018 yil 4 maydagi 86-qarori bilan tasdiqlangan va 489-son bilan ro‘yxatga olingan qo‘srimcha va o‘zgartishlarga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan:

7. Qarzdor/mijoz tashabbusiga ko‘ra kreditlash shartlari qayta ko‘rilgan taqdirda, Qarzdor/mijoz Bankka kreditning amaldagi qoldig‘idan ____% miqdorida komissiya to‘laydi.

8. Qarzdor/mijoz tomonidan kredit mablag‘i to‘lanishidan oldin kredit loyixasi ko‘rib chiqilganligi uchun _____ miqdorida komissiya to‘lanadi.

3-§. Bank majburiyatları

9. Kreditni Qarzdorga/mijozga 20__ yil «__» ____ dan 20__ yil «__» ____ gacha foydalanish muddati bilan berish.

10. Tegishli kredit hisob raqamlarini ochish.

11. Qarzdor/mijoz tomonidan kredit berilishi uchun barcha zarur shartlar bajarilgach, kredit mablag‘ini tovar (xizmat) sotuvchisining hisobvarag‘iga o‘tkazib berish.

11-1. Qarzdorni/mijozni quyidagi omillarni hisobga olgan holda o‘z moliyaviy ahvolini tahlil qilishi zarurligi to‘g‘risida ogohlantirish:

- a) Qarzdorning/mijozning qarz yuki joriy moliyaviy ahvoliga mos kelishi;
- b) ushbu shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarini bajarishi uchun taxminan qaysi muddatlarda va qancha miqdorda pul mablag‘i kelib tushishi kutilayotganligi (ish haqi to‘lanishi, boshqa daromad olishi davriyiligi);
- v) ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajara olmasligiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yengib bo‘lmas kuch ta’siridagi vaziyatlar va boshqa holatlar yuz berishi ehtimoli (doimiy ishini yo‘qotish, o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sababga ko‘ra ish haqi va boshqa turdagи daromadni kechikib olishi, ishga joylashishi, sog‘lig‘ining yomonlashganligi natijasida daromadining tushib ketishi).

(*Bank kuzatuv kengashining 2020 yil 24 fevraldagi 15-son qarori bilan tasdiqlangan va 554-*

son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan band)

11-2. Qarzdordan/mijozdan kreditning joriy to'lovi uchun kreditni qaytarish grafigida belgilanganga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, u holda kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini kreditning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirish hamda kredit qiymatini qayta hisoblash.

(Bank kuzatuv kengashining 2020 yil 24 fevraldag'i 15-son qarori bilan tasdiqlangan va 554-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan band)

12. Kreditni muddatidan oldin undirish omili va sabablari haqida Qarzdorni/mijozni xabardor etish.

13. Asosiy qarzni to'lash bo'yicha __ oylik imtiyozli davr belgilash (*qarzdor/mijoz tomonidan asosiy qarzni to'lash uchun imtiyoz so'ralganda*). *(Bank kuzatuv kengashining 2020 yil 24 fevraldag'i 15-son qarori bilan tasdiqlangan va 554-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)*

13-1. Kredit bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda qarzdor/mijoz zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida ushbu qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 kalendar kuni davomida har qanday aloqa bog'lash usulidan, shu jumladan elektron aloqa vositasidan foydalanib, qarzdorga/mijozga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida kreditni qaytarish grafigini ilova qilgan holda xabar berish. *(Bank kengashining 2019 yil 28 iyundagi 95-qarori bilan tasdiqlangan va 533-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan band)*

13-2. Qarzdorni/mijozni ushbu shartnoma bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlikni qaytarish majburiyatlari bajarilmaganligi holati, muddati, qiymati, tarkibi va oqibatlari haqida xabardor qilish, qarzdordan/mijozdan muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelishi sabablari haqida so'rash. *(Bank kengashining 2019 yil 28 iyundagi 95-qarori bilan tasdiqlangan va 533-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan band)*

13-3. Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to'lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini qarzdorga/mijozga yetkazish (ushbu talabnomada talabnomaga tuzilgan sanadagi qarzdorning/mijozning joriy qarzi miqdori va tarkibi, qarzni to'lash usullari, talabnomada ko'rsatilgan muddatgacha qarzdor/mijoz o'z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatlari va nizoni sudgacha hal qilish usullari qayd etiladi). *(Bank kengashining 2021 yil 11 iyundagi 76-son qarori bilan tasdiqlangan va 587-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)*

13-4. Bank Qarzdorga/mijozga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, mazkur kredit bo'yicha mablag' berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarzdorga/mijozga kredit berish to'xtatilganligi va uning sababi yuzasidan yozma xabarnoma yuborish. *(Bank kuzatuv kengashining 2020 yil 22 oktyabrdagi 116-son qarori bilan tasdiqlangan va 574-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)*

13-5. Qarzdor/mijoz tomonidan kredit bo'yicha qarzdorlik to'liq to'langanidan so'ng, mazkur qarzdorlik bo'yicha amalga oshirilgan oxirgi to'lov sanasining keyingi uch ish kunidan kechiktirmagan holda Qarzdorning/mijozning shaxsiy kabinetida kredit bo'yicha qarzdorlik to'liq so'ndirilganligi va ushbu shartnoma bo'yicha qarzdorlik mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot joylashtirish. *(Bank kuzatuv kengashining 2020 yil 22 oktyabrdagi 116-son qarori bilan tasdiqlangan va 574-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)*

4-§. Qarzdorning/mijozning majburiyatlari

14. Kreditdan foydalanish davomida kredit olish tartiblariga, ya'ni qaytarishlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik, to'lovililik va kreditni maqsadli ishlatalish tamoyillariga rioya qilgan holda amalga oshirish.

15. Qarzdor/mijoz ta'minot sifatida kuyidagilarni taqdim etadi: (ushbu band ta'minot turiga qarab aks ettiriladi)

- _____ ga tegishli (kadastr №_____ 20____ yil « » _____, binoga

guvohnoma №_____ 20__ yil «__ » _____), va _____ manzilda joylashgan _____,

(ko‘chmas mulkning to‘liq nomi) (raqam va yozma holda)

sumga ko‘chmas mulk garovi, O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o‘rnatalgan tartibda rasmiylashtirilgan va bankni qoniqtiridigan shaklda;

- _____ ga tegishli (texpasporti №_____ 20__ yil «__ » _____), davlat raqami _____ va _____ manzilda ruyxatdan utgan _____,

(transportning to‘liq nomi) (raqam va yozma holda)

sumga avtotransport garovi, O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o‘rnatalgan tartibda rasmiylashtirilgan va bankni koniqtiridigan shaklda;

- _____ sum kredit hamda hisoblangan foizlar, jarima to‘lovlar va kredit buyicha boshka tulovlarni koplash buyicha _____ ning kafilligi.

16. Garov mulkini istemol krediti amal qilish muddatiga bank foydasiga o‘rnatalgan tartibda sug‘urtalaydi. Sug‘urta shartnomasi, sug‘urta polisi va notarial tartibda rasmiylashtirilgan garov sharnomasi asl nus’halarini bankka taqdim etadi.

Mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni ta’minalash, alohida shartnoma doirasida tartibga solinadi, garov shartnomalari (kafillik) - kredit shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi.

17. Qarzdorning/mijozning va garovga beruvchining garov reestriga yozuvlarni kiritish uchun yozma roziligini taqdim etish.

18. Kreditni, mazkur shartnomada ko‘rsatilgan, ya’ni 20__yil “__” _____ gacha, xar oyning 11 sanasida, kreditning asosiy qarzini va u bo‘yicha hosoblangan foizlarni mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan jadvalga asosan to‘lash.

19. Bankdagi talab kilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga naqd pul kiritish yoki ish haqi va unga tenglashtirilgan daromadlar hisobidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida o‘rnatalgan tartibda to‘lovni amalga oshirish yo‘li bilan kredit bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni hamda Bank tariflariga muvofiq undiriladigan vositachilik haqini so‘ndirish.

(Bank kengashining 2018 yil 4 maydagi 86-qarori bilan tasdiqlangan va 489-son bilan ro‘yxatga olingan qo‘srimcha va o‘zgartirishlar tahriridagi band)

20. Yashash joyi, ish joyi, familiyasi yoki ismi va ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlardagi o‘zgarishlar to‘g‘risida axborotni 5 (besh) kun mobaynida bankka taqdim etish.

21. Ushbu shartnoma amal qilish muddati mobaynida Qarzdor/mijoz, bankning daslab roziligini olmasdan, ushbu shartnoma bo‘yicha Qarzdorning/mijozning majburiyatiga nisbatan ustuvor talab qilish huquqiga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan uchinchi tomonlarning kreditlarini va/yoki qarzlarini jalb qilmasligi va kafillik bermasligi shart.

22. Kreditlash ob‘ektiga pul mablag‘lari o‘tkazilgandan so‘ng ____ kun muddat ichida Bankka kreditdan maqsadli foydalanimishni tasdiqlovchi hujjatlar (nakladnoy/kabul kilish dalolatnoma/ hisobvaraq) taqdim qilish.

23. Bank so‘roviga binoan bank vakillariga kredit ta’motiga olingan mol-mulkni, kreditga taaluqli bo‘lgan boshqa mol-mulkni ko‘zdan kechirish va ushbu shartnoma bo‘yicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarilishiga taalluqli bo‘lgan har qanday boshqa mol-mulkni joyiga borib ko‘rish imkoniyatini ta’minalash.

24. Bank talabiga binoan ushbu shartnoma amal qilish butun davri mobaynida Qarzdorning/mijozning va kafilning (agar jismoniy shaxs kafilligi taqdim qilingan bo‘lsa) daromadlari to‘g‘risidagi axborotni (agar yuridik shaxs kafilligi takdim kilingan bo‘lsa) solik inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan balans va boshqa moliyaviy hisobotlarni hamda ushbu iste’mol kreditiga tegishli bo‘lgan boshqa ma’lumot va hujjatlarni, bankni qoniqtiradigan shakl va mazmun bo‘yicha taqdim etish.

25. Bank talabiga va kredit munosabatlari jarayonida paydo bo‘ladigan zaruratga ko‘ra, kreditga oid masalaga tegishli savollar va har qanday ma’lumotni taqdim qilish. Bankka taqdim

qilingan hujjatlar va ma'lumotlarning haqkoniyligi uchun Qarzdor/mijoz javob beradi.

5-§. TOMONLARNING HUQUQLARI

26. Bankning huquqlari:

27. Bank, Qarzdorning/mijozning va kafilning moliyaviy holatini, garovga qo'yilgan molmulkni nazorat qilish va Qarzdor/mijoz majburiyatlarini bajarilishi nazoratini amalga oshirish uchun kerakli xujjatlarni so'rab olishi mumkin.

28. Karzdor/mijoz tomonidan majburiyatlarni bajarmaslik holati boshlanganda bank o'z xohishiga ko'ra quyidagi harakatlardan istalganini amalga oshirishga haqli hisoblanadi: (*Bank kengashining 2019 yil 28 maydagi 95-qarori bilan tasdiqlangan va 533-sod bilan ro'yxatga olingan qo'shimcha va o'zgartirishlar tahriridagi xatboshi*)

qarzdor/mijoz tomonidan ushbu shartnomada bo'yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to'lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini qarzdorga/mijozga yetkazish; (*Bank kengashining 2019 yil 28 maydagi 95-qarori bilan tasdiqlangan va 533-sod bilan ro'yxatga olingan qo'shimcha va o'zgartirishlar tahriridagi xatboshi*)

qarzdor/mijoz tomonidan nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan talabnomada belgilangan muddatda ko'rsatilgan talablar lozim darajada bajarilmaganda, sudga da'vo bilan murojaat qilish; (*Bank kengashining 2021 yil 11 iyundagi 76-sod qarori bilan tasdiqlangan va 587-sod bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

- ushbu shartnomada bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi buyicha qo'shimcha ravishda ta'minot talab qilish;
- ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarning bajarmaslik holati aniklanganda qarzdordan/mijozdan kreditning hammasini yoki uning bir qismini muddatidan oldin qaytarishni talab qilish;
- kredit bo'yicha qarzdor/mijoz o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan taqdirda, Bank undiruvni garov va kafillik shartnomalarida belgilangan shartlarda ta'minotga qaratish;
- ushbu shartnomani belgilangan tartibda bekor qilish.

29. Quyidagi hollarda kredit bo'yicha qarzdorlikni Qarzdor/mijoz, birgalikda qarzdor va kafilning Bankdagi hamda boshqa rezident banklardagi hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda undirish:

a) kredit yuzasidan asosiy qarz va/yoki foiz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik paydo bo'lganda;

b) Bank tomonidan kreditni muddatidan oldin so'ndirish to'g'risida qaror qabul qilinganda.

(*Bank kengashining 2022 yil 26 sentyabrdagi 139-sod qarori bilan tasdiqlangan va 2022 yil 28 sentyabrda 619-sod bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

30. Qarzdor/mijoz ushbu shartnomasi imzolangan kundan boshlab iste'mol kreditini bir oy muddatda o'zlashtirmagan taqdirda, bank ushbu shartnomani, karzdorni yozma ravishda xabardor qilgan holda, bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

31. Qarzdor/mijoz tomonidan kredit bo'yicha asosiy qarz va/yoki unga hisoblangan foizlar ikki oy davomida ketma-ket so'ndirilmasa, bank yuzaga kelgan qarzdorlikni so'ndirish uchun undiruvni qarzdor/mijoz tomonidan taqdim qilingan garov ta'minotiga qaratish huquqiga ega.

(*Agar pul mablag' lari garovi olingan bo'lsa*)

32. Qarzdor/mijoz iste'mol kreditini so'ndirish jadvaliga asosan belgilangan muddatlarda asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarning so'ndirilishi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, Bank pul mablag'i garovi hisobidan farmoyishga binoan undirib olish huquqiga ega. Bunda qarzdorlik bo'yicha undirilgan summa miqdori ikki oy davomida qarzdor/mijoz tomonidan to'ldirilishi shart.

33. Qarzdor/mijoz tomonidan kredit bo'yicha asosiy qarz va/yoki unga hisoblangan foizlar so'ndirilishi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, xamda kredit bo'yicha bir-nechta

ta'minot turlari takdim etilgan bo'lsa, Bank undiruvni o'zi xohlagan ta'minotga qaratish xuquqiga ega.

33-1. Qarzdor/mijoz tomonidan, ushbu Shartnoma doirasida, korruption harakatlar bevosita yoki bilvosita sodir etilganligi aniqlansa, *Bank mazkur Shartnomani bir taraflama bekor qilishga haqli hisoblanadi. (Bank kengashining 2025 yil 3 martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 4 martda 694-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan band)*

34. Qarzdorning/mijozning xuquqlari:

34-1. Ushbu shartnoma tuzilgandan keyin va qarzdor/mijoz tomonidan pul mablag'i olingunga yoxud kredit hisobidan mol-mulk uchun to'lov amalga oshirilgunga qadar bo'lgan davrda kredit olishdan bepul asosda voz kechish. (*Bank kengashining 2020 yil 24 fevraldagi 15-qarori bilan tasdiqlangan va 554-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan band*)

35. Ushbu shartnomaning 1-bandida ko'rsatilgan summa doirasida tovar (ko'rsatilgan xizmatlar) uchun kredit xisob raqamidan to'lovnini amalga oshirish.

36. Kredit bo'yicha navbatdagi asosiy qarz va foiz to'lovlarini muddatidan oldin so'ndirish.

37. Olingan kredit bo'yicha asosiy qarzi va unga hisoblangan foizni jarima sanksiyalarisiz istalgan vaqtida muddatidan oldin to'liq to'lagan holda Bank bilan ushbu shartnoman ni muddatidan oldin bekor qilish. (*Bank kengashining 2020 yil 24 fevraldagi 15-qarori bilan tasdiqlangan va 554-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

6-§. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

38. Tomonlar ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, ularga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlik choralar qo'llaniladi. (*Bank kuzatuv kengashining 2020 yil 22 oktyabrdagi 116-son qarori bilan tasdiqlangan va 574-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

7-§. NIZOLARNI HAL QILISH

39. Taraflar ushbu Shartnoma bo'yicha kelib chiqqan nizoni sudgacha hal qilish usullarini qo'llash, shu jumladan muzokara o'tkazish orqali bartaraf etishga haqli hisoblanadi. (*Bank kengashining 2025 yil 3 martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 4 martda 694-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

40. Taraflar mazkur Shartnoma bilan bog'liq bo'lgan, muzokara yo'li bilan hal qilish mumkin bo'limgan barcha nizolarni Bank (bank xizmatlari ofisi) joylashgan joydagisi tegishli sudda ko'rib chiqishga kelishib oldilar. (*Bank kengashining 2025 yil 3 martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 4 martda 694-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

8-§. SHARTNOMANING BOShQA SHARTLARI

41. Kredit asosiy qarzi va asosiy qarz bo'yicha hisoblangan foizlarni so'ndirish jadvali ilovasi ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

41-1. Bank Qarzdor/mijoz uchun ushbu shartnoma bo'yicha asosiy qarzni qaytarishning va hisoblangan foizni to'lashning masofadan turib amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. (*Bank kengashining 2019 yil 28 iyundagi 95-qarori bilan tasdiqlangan va 533-son bilan ro'yxatga olingan qo'shimcha va o'zgartishlarga muvofiq kiritilgan band*)

41-2. Bank ushbu shartnomaning shartlarini, shu jumladan kredit bo'yicha foiz stavkasini va uni belgilash tartibini, vositachilik haqi miqdorini hamda ushbu shartnomaning amal qilish muddatini bir taraflama o'zgartirishga haqli emas. (*Bank kengashining 2020 yil 24 fevraldagi 15-qarori bilan tasdiqlangan va 554-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan band*)

42. Qarzdorning/mijozning o'limi yuz bergen holda, uning barcha huquq va majburiyatları

amaldagi qonunchilikka asosan merosxo‘rlari zimmasiga o‘tadi.

43. Shartnoma shartlari bajarilishi muddati, shartnoma imzolangan kundan boshlab to Qarzdor/mijoz tomonidan shartnoma majburiyatlari to‘liq bajarilguniga qadar amal qiladi.

44. Shartnoma shartlarining o‘zgarishi tomonlarning qo‘sishimcha bitimiga asosan rasmiylashtiriladi va shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

45. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarini qo‘llaydilar.

46. Ushbu shartnoma Bank va Qarzdor/mijoz uchun alohida ikki asl nus’hada tuzilgan bo‘lib, bir xil yuridik kuchga ega va shartnoma imzolangandan to shartnoma majburiyatlari to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

TOMONLARNING YuRIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

BANK	QARZDOR/MIJOZ
«Trastbank» XAB _____ filiali	F.I.Sh_____
Manzil: _____	Manzil: _____
MFO _____, STIR _____	x/r _____
Tel. _____	Tel. _____
Faks _____	Faks _____
Filial boshqaruvchisi _____ (imzo)	_____
Bosh buxgalter _____ (imzo)	imzo
M.O‘.	